


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"

O'zDSMI rektori, professor  
N.B.Sayfullayev

2024-yil "30" avgust

Ro'yxatga olindi: № BD-60211100-1.15  
2024-yil "\_\_\_"

TEATR TARIXI

O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar
- Ta'lim sohasi: 210 000 - San'at
- Ta'lim yo'nalishi: 60211100 - Aktyorlik san'ati: dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati, musiqali teatr aktyorligi san'ati, estrada aktyorligi san'ati, qo'g'irchoq teatri aktyorligi;  
60211200 - Rejissorlik: musiqali teatr rejissorligi, estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi, dramatik teatr rejissyorligi, qo'g'irchoq teatr rejissorligi

Fan/modul kodi TT 20014	O'quv yili 2024/2025	Semestr 6-7	ECTS-Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili o'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 2		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotla ri (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Teatr tarixi	60	60	120

#### I.Fanning mazmuni

Fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda teatr san'atining paydo bo'lishi, shakllanish va rivojlanish xususiyatlari, zamonaviy teatrda ijodiy jaryonlar, dramaturgiya, rejissura, aktyorlik san'atidagi yangi tendensiyalari, teatr san'ati sohasi uchun asosiy ilmiy-nazariy masalalar, teatr san'ati istiqbollarini belgilash, teatr san'atini rivojlantirish bilan bog'langan holda ko'nikmalarini hoslil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishi uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ijtimoiy hodisa va jarayonlarga uslubiy hamda dunyoqarishni shakllartirish vazifalarini bajaradi.

#### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

##### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

###### 1-mavzu. Qadimgi yunon va rim teatri

Qadimgi yunon teatrini kelib chiqishi va uning xalqchillik asoslari. Tragediya /Esxil, Sofokl, Yevripid/ va komediya /Aristofan/ janrlarining rivojlanish jarayoni va ularning g'oyaviy, badiiy o'ziga xosligi. Yunon teatrini ommabopligi, aktyorlik san'ati, xor va tomoshabin.

Qadimgi Rim teatri va uni yunon teatri ta'sirida dunyoga kelishi, dunyoviy muassasa sifatida qabul etilishi. Komediyanavis Plavt ijodining xalqchilligi, sahnabopligi.

Seneka tragediyalari va ularda stoika falsafasiga monand g'oyalarni ifoda etilishi. Rimda yangi usuldagisi teatr binolarini qurilishi, aktyorlik san'ati. Rim adabiy namunalarini Uyg'onish davri yangi dramasi uchun namuna bo'lganligi.

###### 2-mavzu. Uyg'onish davri italyan, ispan, ingliz hamda fransuz klassitsizm teatrлari

Ma'rifiy dramaturgiya va uni qadimgi Rim namunalari asosida tug'ilishi. Ariosto va Makiavelli ijodida yangi davr muammolarini ifoda etilishi.

Komediya del arte va uning xalqchilligi, sahnaviylik xususiyatlari. Italiyada yangi davr teatr binolari nusxalarini ilk bor dunyoga kelishi.

Servantes va uning "Numansiya" qahramonlik xalq tragediyasi. Lope de Vega ijodi ispan Uyg'onish davri teatri cho'qqisini belgilab bergenligi. Lope de Vega asarlarining "Qo'zibuloq qishlog'i" ning xalqchilligi, badiiy yuksakligi.

Lope de Veganing zamondosh va izdoshlari - Tirso de Molina, Pedro Calderon ijodida zamonaviy muammolarni diniy nuqtai nazardan idrok etilishi.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

- Rahmonov M., To'laxo'jayeva M. T., Muxtorov I. A. O'zbek Milliy Akademik drama teatri tarixi. O'quv qo'llanma. – T., 2003. – 189 b.
- Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: Yangi asr avlod, 2007.
- Islomov T. Tarix va sahna. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.
- Jabborov A. O'zbek musiqali dramasi. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1997.
- Tursunov T. Turg'un Azizov. – T.: Yangi asr avlod, 2004.
- Rizayev O. Nabi Rahimov. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1997.
- Rahmonov M., To'laxo'jayeva M. T., Muxtorov I. A. O'zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T., 2003.
- Rizayev SH. Jadid dramasi. – T.: Sharq, 1997.
- Istiqlol va milliy teatr (to'plam). – T.: Yangi asr avlod, 2002.
- Tursunboyev S. Teatr tarixi. – T.: Bilim, 2005.

#### Axborot manbalari

- www.gov.uz
- www.lex.uz
- www.Ziyo.net
- http://www.teatr.ru
- teatr.com
- http://www.mxat.ru

#### 7. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

#### 8. Fan/modul uchun mas'ullar:

F.M.Abduvohidov - O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasи dotsenti

#### 9. Taqrizchilar:

A.H.Ismoilov – San'atshunoslik instituti bshlim mudiri, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
O.Z.Rizayev - O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasи professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi.

	<p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>jahon va o'zbek teatr tarixi fanining mazmun - mohiyatini ochib berish; ta'lif jarayonida talabaning ijodiy imkoniyatlarini rivojlanтирish; bo'lg'usi ijodkor sifatida o'z fikrini aniq ifoda eta olish qibiliyatini tarbiyalash, teatr tarixi san'atining o'ziga xos xususiyatlari, shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida professional tushunchalarni singdirish to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>teatr tarixii rivojiga hissa qo'shgan dramatur, aktyor va rejissyorlik san'atining yirik namoyandalari, shuningdek rassomlar ijodidagi o'ziga xoslik bilan tanishtirish, teatr san'ati barcha xalqlarning ijodiy merosi hisoblanib, u yaxlit holida insoniyat yaratgan badiiy qadriyatlarni haqida <i>bilimga ega bo'lishi</i>;</li> <li>teatr tarixida sahnalashtirilgan spektakllarni, teatrlashtirilgan tomoshalarni tahlil qilish, sohaga oid muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>
--	--

4.	<p><b>VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>ma'ruzalar;</li> <li>amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>interfaol keys-stadilar;</li> <li>blits-so'rov;</li> <li>guruhlarda ishlash;</li> <li>taqdimotlarni qilish;</li> <li>jarayonga asoslangan metod.</li> </ul>
----	---

5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
----	--

	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Tursunboyev S. Abduvohidov F. Teatr tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi. 2018. – 278 b.</li> <li>Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. 1 jild. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi. 1997. – 256 b.</li> <li>Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. 2 jild. O'quv qo'llanma. – T.: Abu Ali ibn Sino. 1999. – 212 b.</li> <li>Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. Xrestomatiy. – T.: O'qituvchi. 2001. – 230 b.</li> <li>Qodirov M., Qodirova S.. O'zbek teatr tarixi. Darslik – T.: Yangi asr avlod, 2015. – 675 b.</li> <li>Rahmonov M. Hamza. (O'zbek davlat akademik drama teatri tarixi.) (1914 – 1960 yillard). O'quv qo'llanma. – T.: G. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – 264 b.</li> </ol>
--	--

"Dorilfunun oqillari" va ularning peshqadami K. Marlo ijodini yangi ingliz teatri va dramaturgiyasini yaratishdagi ahamiyati. Marloning "Sohibqiron Temur" tragediyasi va unda buyuk sarkarda obrazini yaratilishi.

V. Shekspir Uyg'onish davrining daho dramaturgi ekani. Ijodida o'tmish va zamonaviy teatr va dramaturgiya tajribalarini umumlashtirilishi, tragediya va komediya sohasida namunaviy asarlarni yaratilishi. Uning buyuk tragediyalari - "Romeo va Julietta", "Hamlet", "Otello", "Qirol Lir"; Shekspir va o'zbek teatri.

Shekspir davri ingliz sahna san'ati. "Globus" teatri ijrochiligi.

Fransuz teatrida markazlashgan monarxiya davlati barpo topishi bilan klassitsizm uslubini shakllanishi. Klassitsizm uslubini estetik prinsiplari. P. Kornel klassitsizm tragediyasining birinchi namoyondasi ekani, uning "Sid" asari va uni fransuz akademiyasida talabga zid bo'lganidan keskin tanqid ostiga olinishi.

Jan Rasin klassitsizm uslubini ruhiy psixologik tragediyalari bilan boyitganligi. Uning "Andromaxa", "Fedra" asarlari.

Moler oliy komediyaning asoschisi ekani. Moler asarlarining xalqchilligi va sahnabopligi. "Tartyuf", "Skapenning nayranglari", "Xasis" kabi asarlari va ularda qalloblik, xudbinlik illatlarini qoralanishi.

Fransuz sahna san'ati. Klassitsizm ijo prinsiplari.

### 3-mavzu. Ma'rifatparvarlik ingliz, fransuz, italyan, nemis teatrlari

Ma'rifatparvarlik teatri janlarini ilk bor ingliz teatrida shakllanishi. J.Lillo, G.Filding, Jon Gey, O.Goldsmit asarlari meshehan tragediyasi, tanqidiy va maishiy komediya yo'nalishidagi eng yirik namunalari ekani.

Richard Brinsli Sheridan va uning "G'iybat maktabi" komediyasi ingliz ma'rifiy komediyasining eng sara namunasi ekani.

Druri-Leyn teatri - Angliyaning bosh teatri ekani. Devid Garrik va uning aktyorlik, rejissyorlik faoliyati. Garrik ijodida ma'rifatparvarlik realizmini namoyon bo'lishi.

Volter ma'rifatparvarlik klassitsizmi tragediyalarining "Zaira"\ muallifi ekani. Deni Didroning \1718-1784\ "Aktyor haqida paradoks" risolasi va unda aktyor ijodini mustaqil ijod sifatida asoslab berilishi.

Bomarshe fransuz ma'rifatparvarlik komediyasining asoschisi ekani. Uning "Seviliya sartaroshi" va "Figaroning uylanishi" komediyalari va ularni fransuz teatrida tutgan o'rni.

Fransuz sahna san'ati. Mari Dyumenil va Ippolita Kleron fojeiy malikalar rollarida. Anri Lui Leken fransuz tragediyasi ijrosida realistik prinsiplar asoschisi ekani.

Italian dramaturgiyasida adabiy drama turini yaratilishida komediya del arte xalq teatring o'rni. K. Goldoni teatr islohotlari. Uning "Ikki boyga bir malay" va "Mehmonxona bekasi" komediyalari.

Karlo Gotssi teatr ertak lvyab\ lari janrining eng yirik namoyondasi ekani. Uning "Malikai Turandot", "Baxtli gadolar" asarlarni sharq ertaklari asosiga qurilganligi va ularning o'zbek sahnasida qo'yilganligi.

Nemis teatrida klassitsizm uslubini tarqalishi tusayli feudal saroy teatriga zid ravishda sahnaga ijtimoiy mavzuni kirib kelishi. Lessingning nazariy va dramaturgliq faoliyati bilan ma'rifatparvarlik realizmini yetakchi yo'nalishiga

aylanishi. Lessingning "Gamburg dramaturgiyasi" to'plami va dramaturgiyada ijtimoiy taraqqiyarvar g'oyalarini ifoda etilishi. Lessingning "Donishmand Natan", "Minna fon Barnxelm" asarları.

Gyotening dramaturglik faoliyatı va Veymar teatridagi rejissyorligi; uning "Faust" asarida umuminsoniy g'oyani ifoda etilishi.

Fridrix Shiller buyuk dramaturg sifatida "Qaroqchilar", "Makr va muhabbat" tragediyalarida ma'rifatparvarlik ideallarini idrok etilishi. Shiller asarlarining o'zbek sahnasi dagi talqinlari.

Nemis sahna san'ati. L. Shryoder tomonidan nemis teatriga Shekspir asarlarini olib kirilishi va uning aktyorlik sohasidagi yutuqlari.

#### 4-mavzu. Fransuz, ingлиз, nemis romantizm teatrлари

V. Gyugo romantizm uslubining asoschilaridan biri ekani. Uning "Kromvel" asariga "Kirish so'zi"da romantizm prinsiplarini asoslab bergenligi va bu qarashlarni amalda uning "Shohona ishrat", "Marion Delorm" dramaturgik asarlarida mujassam topganligi.

Fransua Jozef Talma, Frederik Lemetr fransuz romantik sahnasining eng yirik namoyondalari ekani. Ularning demokratik teatr uchun olib borgan islochchilik faoliyatları.

Jorj Gordon Bayron pesalari /"Manfred", "Qobil"/da zulmga qarshi isyonkorlik g'oyalarini mujassam topishi. "Qobil" asarini Qarshi shahar "Eski machit" studiyasida shaytoniy vasvasa va xudbinlik illatini fosh etish ruhida talqin topishi.

"Druri - Leyn" teatrida faoliyat ko'rsatgan tragik aktyor Edmund Kinning Shekspir qahramonlari, ayniqsa Otello rolida keng shuhrat topishi.

Genrix fon Kleyst nemis romantizmining yirik namoyondasi ekani. Uning "Xeylbronlik Ketxen" asarida rivoyat ruhida chin sevgi mavzusini ifoda etilishi. Byuxner, Guskov realistik yo'nalishdagi pesalar /"Dantonning o'slimi", "Uriel Akosta"/ mualliflari ekanliklari.

Lyudvig Devriyent sahna romantizmining yirik namoyondasi ekani. Zeydelman ijodida realizm unsurlarini namoyon topishi.

#### 5- mavzu. XIX asr oxiri XX asr boshlarida fransuz, skandinaviya /norveg/, nemis, italyan teatrлари

Emil Zolya naturalizm uslubining asoschilaridan ekani. Uning sahnada zamonaviy mavzu va hayotiy ijob yo'lida klassitsizm uslubini tanqid ostiga olishi va uning "Tereza Raken" asarida inson kechmishini natural borlig'icha ifoda etilishi.

Meterlink simvolizm uslubining asoschilaridan biri ekani va uning "So'qirlar", "Yashil qush", "Avliyo Antoni karomati" pesalarida Meterlink qarashlarni aks ettirilganligi.

"Komedi Fransez" sahnasida Mune - Syulli va Sara Bernarning shov - shuvli rollari; ularni sahna texnikasini mukammal egallaganligi bilan shuhrat topganliklari.

Andre Antuan professional rejissuruning asoschilaridan biri ekani va uning "Erkin teatr" faoliyati.

17. YE. Shvars. Ko'lanka
18. A. Vamtelov "O'rdak ovi" ("Utinaya oxota")
19. A. Volodin "Starshaya sestra"

#### Ozarbayjon teatri

1. H. Jovid. Amir Temur, Shayx San'on
2. U. Xojibekov. Arshin mol-olon
3. S. Mamadkulizada. O'liklar

#### Tatar teatri

1. A. Fayziy. Abdulla To'qay
2. N. Isambat. Musa Jalil
3. T. Minullin. Almandar
4. Y. Eminov Isqirt satang

#### Qozoq teatri

1. M. Auvezov. Yenlik va Kebek, Abay /L. Sobolev bilan hamkorlikda yozilgan/
2. G. Musrepov. Qo'zi Ko'rpeshev va Bayan-Suluv
3. S. Muqonov. Cho'qon Valixonov

#### O'zbek teatri qismi bo'yicha asarlar:

- M. Behbudiy. Padarkush  
A. Qodiriy. Baxtsiz kuyov  
A. Avloniy. Advokatlik osomni?  
Hamza. Zaharli hayat, Boy ila xizmatchi  
A. Fitrat. Abulfayzxon  
Cho'lpion. Yorqinoy  
K. Yashin. Nomus va muhabbat, General Sobir Rahimov, Nurxon Uyg'un. Alisher Navoiy (I. Sultan bilan hammalliflikda), Parvona M. Shayxzoda. Mirzo Ulug'bek  
A. Qaxxor. Ajajonlarim, Tobutdan tovush  
O. Umarbekov. Qiyomat qarz, Kuzning birinchi kuni  
T. To'la. Nodirabegim  
S. Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni  
E. Vohidov. Oltin devor  
A. Oripov. Sohibqiron  
To'ra Mirzo. Amir Temur  
SH. Boshbekov. Temir xotin, Taqdir eshigi  
To'ra Mirzo. Amir Temur  
H. Rasul. Piri koinot  
E. Xushvaqtov. Chimildiq

#### 3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

20. P. Bomarshe. Figaroning uylanishi.
21. K. Goldoni. Mehmonxona bekasi. Ikki boyga bir malay.
22. K. Gotssi. Baxtiyor gadolar.
23. Lessing. Minna fon Barnxelm.
24. Gyote. Faust.
25. F. Shiller. Qarоqchilar. Makr va muhabbat.
26. V. Gyugo. Shohona ishrat. "Kromvel"ga "Kirish so'zi".
27. Bayron. Qobil.
28. G. fon. Kleyst. Xeylbronlik Ketxen
29. M. Meterlink. So'qirlar.
30. G. Ibsen. Qo'g'irchoq uy.
31. G. Gaupman. Hayot shomi.
32. B. Shou. Pigmalion
33. O. Uayld. Ermisan er.
34. J. Anuy. Antigona.
35. Pristli. Xatarli burlish.
36. Pirandello. Payvand.
37. B. Brext. Onaizor Kuraj va uning bolalari.
38. Y. O'nil. Qayrag'och soyasida.
39. Garsia Lorka. Qonli to'y.
40. J. P. Sart. Pashshalar.
41. E. Ionesko. Kalbosh qo'shiqchi ayol.
42. S. Bekket. Keldilar, ketdilar.
43. J. Osborn. Qahr ila boq.
44. T. Uilyams. Billur jonzotlar.
45. Eduardo de Filippo. Silindr.

**MDH xalqlari teatri qismi bo'yicha asarlar:**  
**Rus teatri**

1. D. I. Fonvizin. Dumbul boyvachcha
2. A. S. Pushkin. Boris Godunov, Motsart va Saleri, Tosh mehmon
3. M. Y. Lermontov. Maskarad
4. N. V. Gogol. Revizor, Uylanish
5. A. N. Ostrovskiy. Momaqaldiroq, Sepsiz qiz
6. L. N. Tolstoy. Tirik murda
7. A. P. Chexov. Chayka. Olchazor, Vanya tog'a
8. M. Gorkiy. Tubanlikda, Vassa Jeleznova
9. V. Mayakovskiy. Klop
10. A. Arbuzov. Irkutsk voqeasi
11. A. Afinogenov. Mashenka
12. M. Bulgakov. Dni Turbinix
13. N. Pogodin. Moy drug
14. V. Rozov. V poiskax radosti
15. B. Ramashev. Vozdushniy piroq
16. K. Simonov. Rus kishilar

Skandinavyada ozodlik harakatini avj olishi munosabati bilan dramaturgiya va sahna san'atini norveg dramaturglari Ibsen, Bernson va shved dramaturgi Strindberg ijodi misolida Yevropa miqyosida obro' topishi.

Ibsen ruhiyat (psixologik) dramaning yirik namoyondasi ekani. Uning "Qo'g'irchoq uy", "Arvoхlar" dramalarida inson kechinmalarini nozik timsoliy ifodalarda mujassam etilishi, "Xalq dushmani", "Brand", "Pergunt" dramalarining o'ziga xos xususiyatlari.

Dramaturgiyaning rivojlanishi. G. Gaupmanning ijodida turli oqimlar va xususan timsoliy tasvirlar orqali voqelikni shoirona /"Ag'darilgan qo'g'irchoq"/ tasvir etilishi. "Hayot shomi" dramasi va uning Hamza nomli akademik drama teatrida fashizm siyosatini fosh etuvchi asar tarzida talqin etilishi.

Meyningemchilar teatri o'z rejissurasi, ommaviy sahna yaratishda Yevropada namuna teatrga aylanganligi.

Maks Reynhardt rejissurasining realistik asoslari. "Shoh Edip", "Dantonning o'limi" spektakllarida yuzlab ishtirokchilar orqali hayajonli ommaviy sahnalar yaratilishi va ayni zamonda aktyorlar layoqatini ochilishi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida italyan teatrida buyuk tragik aktyorlarni yetishib chiqganligi. Ernesto Rossi texnika ustasi bo'lgani holda kechinma matabining yirik namoyondalaridan biri sifatida Romeo, Hamlet rollarida keng layoqatini namoyon etganligi.

Tommazo Salvini kechinma matabining yirik namoyondasi ekani va Otello, Edip rollari bilan Yevropa va Rossiyada shuhrat topganligi.

Eleonora Duze buyuk tragik aktrisa sifatida mumtoz va zamonaviy asarlarda shuhrat qozongan Juletta, Margarita "Gul ko'targan xonim"\ rollari. Duzening inson dardini ifoda etishda S. Bernarning texnik ifoda usullaridan farqli o'laroq kechinma san'atiga tayangan holda ish tutishi.

Bernard Shou ingliz dramaturgiyasida paradoks ifoda usulining asoschisi sifatida ko'ringan dramaturg, yirik san'atshunos ekani. Uning "Pigmalion", "Parivash Ioanna" kabi asarlarida ingliz jamiyati kirdikorlarini ajoyib – g'aroyib voqealar va bo'rtma, g'alati ifoda usullari orqali ifoda etishi.

Oskar Uayld san'atda go'zallikning o'zi san'at tarzida ulug'langan va ingliz jamiyati kiborlar olami kirdikorlarini hazil - mutoyiba usullari orqali hajj ostiga olgan dramaturg ekani.

Ingliz "Litseum" teatri va uning rejissyori va yetakchi aktyori Genri Irvingning Shekspir asarlarini qo'yish yo'lidagi izlanishlari va o'zi ijob etgan Shekspir asarlaridagi roller.

Edvard Gordon Kreg rejissyor, rassom va teatr nazariyachisi ekani. Uning Moskva badiiy teatriga mo'ljallangan "Hamlet" spektakli rejissyorlik loyihasi haqida.

**6-mavzu. XX asr birinchi yarmida XXI asr boshlarida fransuz, Ingliz, nemis, italyan, ispan hamda Amerika Qo'shma Shtatlari teatrлari**

Fransuz teatrda intellektual dramani rivojlanishida Jiroduning "Troya urushi bo'lmaydi", "Zigfrid" dramalarining o'mi.

Anuy tafakkur (intellektual) dramasining yirik namoyondasi sifatida qadimgi yunon mifiga asoslangan "Antigona" dramasida fransuz xalqini nemis

bosqinchilariga qarshi kurashga da'vat etishi.

Fransuz bulvar - xiyobon teatrларини тijoriy tusga kirishi va moliyaviy manfaat yo'lida bir spektakl maqomi doirasida qolib ketishi

Tomas Sterns Eliot eski an'analar asosida she'riy drama turini yaratgan va "Ibodatxonada ro'y bergan qotillik" asari muallifi sifatida tanilgan o'ziga xos adib ekani.

Jon Boynton Pristlining "Xatarli burilish", "Inspektor keldi" dramalari va ularning o'ziga xos badiiy ifoda usullari. Pristli tafakkur dramasi an'anasing davomchisi ekani.

"Old Vik" teatri mumtoz asarlar teatri sifatida XX asrning birinchi yarmida Shekspir ijodini keng targ'ib etgan ijodiy maskan bo'lib kelganligi. L. Olive va Dj. Gilgud ijodi misolida eng teran talqin va ijro an'analarini rivoj topganligi.

Nemis teatrida ekspressionizm oqimini tarqalishi. XX asrning 19 - 20 yillardan Brexit tomonidan nemis dramaturgiyasida realistik prinsiplarni amalga oshirilganligi.

Brexitning "epik teatr" sistemasi va bu sistema asoslarini "Uch mirilik opera", "Onaizor Kuraj va uning bolalari" asarları orqali amalda namoyon etganligi. Bu qoidalarni sahnada 1949 yili ochilgan "Berlin ansamblı" teatri misolida ro'yobga chiqqanligi.

Yelena Vaygel Onaizor Kuraj rolini eng yaxshi ijro etgan va Brexit "epik teatr"i talablarini aktyor ijrochiligidagi ro'yobga chiqqan san'atkor ekani.

Luidji Pirandello italyan dramaturgiyasini Yevropa teatrларига olib kirgan, "Olti personaj muallifini izlaydi" pesasi bilan hayot va ijod mutanosibligi muammosini idrok etgan atoqli dramaturg ekani. Pirandelloning "Payvand" asari va uni Abror Hidoyatov ulkan muhabbat va ishonch, e'tiqod dramasi tarzida talqin etilishi.

Italian sahnasida Irma va Emma Gramatika tomonidan Duze an'analarini davom ettirilganligi.

Garsia Lorka dramaturgiyasida erkinlik va go'zallik mavzusini tarannum etilishi. Lorkaning "dehqon tragediyalari", "Qonli to'y" dramasi va uni Muqimiy nomli teatrda sahnalashtirilganligi.

Lorkaning "Bernarda Alba" asarida shaxs erkinligi g'oyasini ifoda etilishi.

AQSH milliy dramaturgiyasini XX asrning boshlarida rivojga kiranligi. Yujin O'Nil va uning dramatik asarlarini XX asr birinchi yarmi Amerika sahnasida yetakchi o'rinni egallaganligi. "Kit yog'i", "Qayrag'och soyasida" asarini Samarqand teatrda qo'yilishi.

AQShda XX asrning birinchi yarmida ommabop teatrлари keng rivojlanganligi. Bora - bora teatrлари "Brodvey", "nobrodvey" ya'ni tijoriy va doimiy ishlovchi ommabop teatrлarga ajralishi.

Jan Pol Sartr ekzistensializm falsafiy oqimining asoschisi va o'z dramaturgik asarlarini shu falsafiy ta'limot nuqtai nazaridan yozganligi. "Pashshalar" dramasi va uni akkupatsiya yillari xalqni fashizmga qarshi kurashga chorlovchi asar sifatida sahnaga talqin etilishi.

Fransuz absurd teatri. Ionesko va S. Bekket absurd teatrining asoschilarini sifatida fransuz, shu jumladan boshqa Yevropa teatrларига yangi estetik ifoda usullari bilan ta'sir ko'rsatganligi.

sahnalashtirishdagи yangicha yondoshuv jihatlari. Teatr sahnasida Milliy qadriyatlarning namoyon bo'Ishi. O'zbek teatrлари sahnalarida davr muammolarining badiiy aks ettirish masalasi. O'zbek teatri rejissurasining yutuq va muammolari hamda istiqboli.

#### IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kirish. Qadimgi yunon va rim teatri.
2. Uyg'onish davri va XVII asr klassitsizm teatri.
3. Marifaiparvarlik teatri
4. Romantizm davri g'arbiy yevropa teatri
5. XIX asr oxiri XX asr boshlarida g'arbiy yevropa teatri
6. XX asr va XXI asr boshlarida g'arbiy yevropa teatri
7. XVII – XX asr rus teatri. Rus teatrining asosiy bosqichlari
8. MDX davlatlari teatrлари
9. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida o'zbek teatri
10. Yangi davr O'zbek teatri va jadid dramaturgiyasining maydonga kelishi
11. Professional sahna, davlat teatrларining tashkil etish jarayonlari
12. 1940-1960 yillarda o'zbek dramaturgiyası va sahna san'atining taraqqiyoti
13. 1970-1980 o'zbek teatri
14. Yangi davr dramaturgiyasida zamonaviy mavzu
15. Istiqlol yillarda o'zbek teatri.

#### VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlар

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan asarlar:

1. Esxil. Zanjirband Prometey.
2. Sofokl. Shoh Edip. Antigona.
3. Yevripid. Medey.
4. Aristofan. Lisistrata.
5. Aristotel. Poetika.
6. Plavt. Maqtanchoq jangchi.
7. Seneka. Medey.
8. Makiavelli. Mandragora.
9. Servantes. Numansiya.
10. Lope de Vega. Qo'zibuloq qishlog'i. It yemas, otga bermas.
11. P. Kalderon. Hayot - tush demak.
12. K. Marlo. Buyuk Soxibqiron.
13. V. Shekspir. Romeo va Julietta. Hamlet. Otello. Qirol Lir. O'n ikkinchi kecha. Qiyiq qizning quyilishi.
14. Per Kornel. Sid.
15. J. Rasin. Andramaxa.
16. J. B. Moler. Tartyuf. Skapenning nayranglari. Zo'raki tabib.
17. Sheridan. G'iybat maktabi.
18. D. Didro. Aktyor haqida paradoks.
19. Volter. Zaira.

N.Otaboyev (Farg'ona), M.Hamidov (Andijon), U.Baqoyev (Buxoro), M.Ravshanov (Surxondaryo), I. Niyozmetov, X.Islomov (Xorazm), M. Muhamedov, J. Mahmud (Guliston) kabi yangi rejissyorlar bo'g'inining yetishib chiqishi.

E. Vohidovning «Oltin devor» (1970, rejissyor T. Xo'jayev), S.Ahmadning «Kelinlar qo'zg'oloni» (1976, rejissyor B. Yo'ldoshev), SH. Boshbekovning «Temir xotin» (1988, Farg'ona teatri, rejissyor O. Salimov) asarlari va ularning sahnnaviy talqinlari bilan o'zbek komediysi tarixida yangi davr ochilganligi.

Sharof Boshbekovning Farg'ona teatri talqinida 1989 yili Bishkekda Markaziy Osyo teatrлari festivalida oliy mukofotga sazovor bo'Igan «Temir xotin» dramasidan boshlab «Taqdir eshig», «Eshik qoqqan kim bo'ldi», Abdumaxxon Ibrohimovning «Birinchchi bo'sa» (1971), Mashrab Boboyevning «Bizning hovli» (1974) asarlarini yoshlar dramaturgiyasida e'tiborli voqeaga aylanganligi.

**Sahna san'ati.** Rejissura sohasida M.Uyg'ur, T.Xo'jayev an'analarini Milliy akademik teatrdagi qayd etilgan «Shoshma, quyosh» kabi spektakllar qatori taniqli rejissyor B.Yo'ldoshevning «Kelinlar qo'zg'oloni», «G'ariblar» (1977, V.Delmar), «Nodirabegim» (1980, T. To'la) singari spektakllarda yaqqol namoyon bo'Iganligi.

70-80 yillar o'zbek sahna san'ati avvalgidek ko'plab yirik aktyorlik topilmalariga boy bo'Iganligi; SH. Burhonovning Sulaymon ota, Zaynab Sadriyevaning Farmonbibi («Kelinlar qo'zg'oloni»), G'ani A'zamovning Mo'min («Oltin devor»), Obid Yunusovning O'tkuriy («Parvona») kabi bir necha rollarining o'zi ham o'zbek aktyorlik ijodi samarali natijalarga boy ekanidan dalolat beradi.

#### 15- mavzu. Istiqlol yillarda o'zbek teatri

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingach, milliy qadriyatlarni tiklash va ularni Istiqlol davri talablari asosida rivojlantirish dramaturglar, san'at ahlining asosiy vazifalaridan bo'lib qolgani; shu yaratilgan imkoniyatlar tufayli dramaturgiya va sahnamizda Amir Temur, Mirzo Bobur, Ismoil al Buxoriy, Ahmad Yassaviy kabi tarixiy siymolar obrazlarining paydo bo'lishi.

Buyuk sohibqiron obrazini yaratish yo'lida izlanishlar: Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramasi va unda Amir Temurni buyuk lashkarboshi, davlat arbobi sifatidagi xislatlarini yorqin ifoda etilishi. Mazkur asansi 1997 yili Sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan teatr festivalida Milliy akademik drama teatri (rejissyor O. Salimov) va yana uchta teatr tomonidan namoyish etilganligi.

Istiqlol yillarda o'zbek dramaturgiyasi. To'ra Mirzoning «Amir Temur», «Temur va To'xtamishxon» dramalarida Sohibqiron obrazini turli tarixiy vaziyatlar sharoitida yaratilishi.

Usmon Azim, Erkin Xushvaqtov ijodiy faol dramaturglar sifatida maydonga chiqishi: U. Azimning «Kunduzsiz kechalar», «Alpomishning qaytishi», E. Xushvaqtovning «Chimildiq», «Qalliq o'yin» asarlarining sahnnaviy jozibadorligi va ularni Muqimiy nomli («Alpomishning qaytishi») va Milliy akademik drama teatrlarida uzoq umr ko'rib hamon tomoshabinlarni qiziqishini qozonib kelishi.

Rejissura san'ati va uning istiqboli. O'zbek teatr rejissurasining mustaqillik yillardagi o'ziga xos xususiyatlari. Tarixiy va zamonaviy asarlarning

Fransuz sahna san'ati. Jan Vilar, Jerar Flipp singari atoqli rejissyor va aktyorlar ijodi samarasini o'laroq milliy xalq teatri va eng sara ijodiy an'analarini yangi sharoitda yashashda davom etganligi.

"Alamzada yoshlari" dramaturgiyasi XX asr ikkinchi yarmi ingliz teatri rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatganligi. Jan Osborn bu yo'nalish dramaturgiyasini "Qahr ila boq" dramasi bilan boshlab berganligi. "Qahr ila boq" asarini ingliz sahna san'ati tarixida muhim bosqichga aylanganligi.

Ingliz sahna san'ati. L. Olive, Dj. Gilgud kabi mashhur tragik aktyorlar, Peter Bruk, Pol Skofilddek bir - biriga hamkor bo'lib "Gamlet", "Qirol Lir" asarlarini yangicha talqin etgan rejissyor va aktyor tufayli yangi taraqqiyot bosqichga ko'tarilganligi.

Eduardo de Filippo dramaturg va aktyor sifatida urushdan so'ng italyan teatrida yetakchi ijodkor sifatida faoliyat ko'rsatgan yirik sanat arbobi ekanligi. Uning asarlarida hangomavash voqealar orqali insonning dard – kechinmalarini ifoda etilishi.

Jorj Streler italyan sahnasida Shekspir asarlarining eng iste'dodli talqinchisi va nomi chet ellarda tanilgan yirik rejissyor ekanligi.

Hujjalni drama turini urushdan keyingi nemis teatrida fashizmni qoralovchi badiiy ijod namunasiga aylanganligi. X. Myuller, Peter Vays asarlarida Germaniyani o'z fashistik siyosatining qurbaniga aylanganligi tarixini ko'rsatilishi.

1949 yili Berlinda Brext tomonidan "Berlin ansambl" teatrini tashkil etilishi va uning pardasini "Onaizor Kuraj va uning bolalari" asari bilan ochilishi.

Karel Chapek dramaturgiyasida inson hayotining ma'no va mohiyati muammosini ko'tarilishi va shu jihatni bilan "Ona", "Oq o'lat" dramalarini dunyo teatrлari repertuaridan o'rн olganligi.

Fridrix Dyurrenmatt Shveysariya dramaturgiyasida Brext tajribasini davom ettiruvchi va asarlarida ajoyib - g'aroyib voqealar orqali o'z zamoni muammolarini idrok etganligi.

T. Uilyams psixologik drama yo'nalishining yirik namoyondasi ekani. Uning "Billur jonzotlari", "Orzu" tramvayi" asarlarini dunyo teatrлari repertuaridan o'rн olganligi.

Artur Miller ijodida inson shaxsi va jamiyat orasidagi munosabat yetakchi mavzu ekanligi. Uning "Hamma bolalar mening farzandlarim", "Gumashtaning o'limi" asarlarida ezgulik g'oyalalarini ifoda etilishi.

Elia Kazan yirik Amerika rejissori sifatida eng sara asarlarini repertuarga kiritgan sahna arbobi ekani. Uning mumtoz va zamonaviy asarlarni sahnalashtirishdagi mahorati.

Brodvey teatrlarida ko'ngil ochish usullarini keng qo'llanilishi. "Nobrodvey" teatrlarining xalqqa yaqinligi, doimiy repertuar va ijodiy jamoaga egaligi bilan barqaror ijodiy jarayon doirasida yashashi.

#### MDH XALQLARI TEATRI

##### 2-modul. RUS TEATRI

7-mavzu. XVII – XVIII asr rus teatri. Rus realistik dramasining paydo bo'lishi.

Podsho Aleksey Mixaylovich saroyidagi teatr va imperator Pyotr I davrida teatr.

Diniy seminariy (maktab) teatrлari.Yarim professional demokratik xarakterdagи teatrлari. Rus teatrining boshlanish davri bosqichlari. P. Sumarokov tragediyalari rus teatri repertuarini tashkil etishi. Pushkin va Belinskiy Sumarokov haqida.

Birinchi rus milliy teatrining tashkil topishi (1756). Aktyorlik san'ati. F. G. Volkov "rus teatrining otasi" (V. G. Belinskiy) A.Dmitrevskiy, F.G.Volkov safdoshlari.

A. S. Griboyedovning rus dramasi va teatri rivojidagi o'rni. "Aqlililik balosi" - g'oyaviy va badiiy xususiyatlari.

Ostrovskiyning zamonaviy mavzudagi asarlari va rus voqeligi.

"Serdaromad joy", "Momaqaldoq", "Sepsiz qiz" asarlarining o'ziga xos xususiyatlari.

MXTning tashkil topishi. (K. Stanislavskiy va V. Nemirovich - Danchenkoning teatр programmasi) K. Stanislavskiy va V. I. Nemirovich - Danchenko.

kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

#### 8-mavzu. MDX davlatlari dramaturgiyasи va teatrлari

**Ozarbayjon teatri.** M. F. Oxundov ozarbayjon dramaturgiyasining asoschisi ekani.

M. F. Oxundov komediyalarda jaholat va xudbinlikni qoralanishi.

Mamatqulizoda va uning "O'liklar" komediysi.

Husayn Jovid va uning "Shayx San'on" va "Amir Temur" asarlari. Husayn Jovid asarlarining o'zbek sahnasidagi talqinlari.

**Ozarbayjon sahna san'ati.** X. Arablinskiy ozarbayjon sahnasining fojeiy aktori ekani. Uning Xlestakov, Otello, Frans Moor rollari. Sidqi Ruxillo yirik ozarbayjon aktori ekani. Uning "Layli va Majnun" spektaklini 1916 yili Toshkentda sahnalashtirishi.

**Tatar teatri.** Tatar teatrining shakllanishi. 1906 yili Qozonda tatar tilida ilk pesa ko'yilganligi.

G. Kamol dramaturgiysi. G. Kamolning "Baxtsiz yigit", G. Ilyasning "Baxtsiz qiz" asarlari tatar dramaturgiyasining ilk namunalari ekani. G. Kamol tatar dramaturgiyasining asoschilaridan biri ekani va uning asarlarida demokratik g'oyalarni ifoda etilishi.

**Qozoq teatri.** Muxtor Auvezov qozoq dramaturgiyasining asoschilaridan biri ekani. Uning "Yenlik va Kebek" pesasi va uni 1926 yili sahnaga qo'yilishi

M. Auvezovning "Ko'blandi", "Abay" dramalari kozoq dramaturgiyasining yirik namunalari ekani.

**Qirg'iz teatri.** Qirg'iz professional teatrini dunyoga kelishi.

Qirg'iz teatrinda M. Risqulov, A. Botaliyev, S. Jamanov, A. Kuttubayeva singari yirik aktyorlarni yetishib chiqqanligi.

**Tojik teatri.** Eng yirik tojik drama teatrini shakllanish jarayoni. Teatrni M. Qosimov, S. To'ybayeva, T. Fozilova, A. Burxonov kabi yirik aktyorlar teatri sifatida shuhrat topishi.

**Turkman teatri.** Mullanafas hozirda Turkmanboshi nomidagi drama teatri

Teatrni studiya shaklidan 1929 yili yirik ijodiy jamoa sifatida shakllanishi.

Teatr ijodida yetakchi o'rн tutgan rejissyor va aktyorlar.

#### 3-modul. O'zbek teatr tarixi

Ahmedov, Sulaymon Qosimov, Zunun Madaliyev, Hafiza Ibrohimova (Farg'ona), Mukarrama Azizova, Muhriddin Mansurov, Sobir Rahmoniy, Karim Yo'ldoshev, Matmatxon Ubaydullayev (Namangan), Vaxobjon Fayozov, Hoshim Islomov, Ibdulla Niyozmetov (Xorazm), Zaynab Sodiqova, Ta'naberdi Qurbonov, Asror Jo'rayev (Samarqand), Xadicha Boboxonova, Mansur Ravshanov (Surxondaryo) kabi aktyor va rejissyorlarni viloyat sahna ijrochilik mahoratini oshirishdagi samarali izlanishlari; ular yaratgan ko'pgina spektakllar va sahna obrazlarini teatrımız tarixidan munosib o'rн olganligi.

#### 14- mavzu. Yangi davr dramaturgiyasida zamonaviy mavzu, davr kishilari va ularning yuksak badiiy qiyofasi.

UYG'UN (Rahmatulla Otaqo'ziyev, 1905-1990) eng sermahsul dramaturlardan biri va uning ijodida zamonaviy mavzu («Parvona», «Parvoz») qatori tarixiy- biografik mavzuni yetakchi yo'nalish bo'lib kelganligi. Uning I. Sultanov bilan yozilgan «Alisher Navoiy» dramasida Navoiy obrazining buyuk shoir va davlat arbobi sifatida yaratilganligi. Uyg'unning «Abu Rayhon Beruniy» (1973), «Abu Ali ibn Sino» (1980), «Zebunniso» (1983) dramalari va ularda tarixiy shaxs timsollarining yaratilishi.

Maqsud SHAYXYZODAning (1908 - 1967) «Jaloliddin Manguberdi» (1944), «Mirzo Ulug'bek» (1961) pesalarini yuksak badiyligi va tarixan haqqoniyligi bilan o'zbek dramaturgiyası va sahna san'ati tarixida yirik bosqichga aylanganligi. Fojeiylik ruhida yaratilgan Mirzo Ulug'bek obrazining ko'p qirraliligi, ya'ni Ulug'bekni oddiy inson, olim va hukmdor tarzida namoyon topganligi.

Abdulla QAHHOR (1907-1968) komediyalari bilan o'zbek dramaturgiyası tarixida komediya janri rivojida yangi davrning ochilganligi. «Og'riq tishlar» (1954), «Tobutdan tovush» (1962) satirik komediyalarida poroxo'rlik, ahloqsizlikning ijtimoiy illatlar sifatida fosh etilishi.

Hamid G'ULOM (1919-2005)ning «Toshbolta oshiqa», «Farg'ona hikoyasi», «Ajib savdolar» kabi zamonaviy mavzudagi musiqali komediyalari.

O'llmas UMARBEKOV (1934-1994)ning insoniy qadr-qimmat, ezzilik his-tuyg'ulariga to'la dramaturgiyası orqali sahnada zamondoshlarimizning kuchli timsollarining yaratilganligi. Rejissyor Rustam Hamidov talqinida uning «Qiyomat qarz» (1977, H. Qo'chqorov hamkorligida), «Shoshma, quyosh» (1978), «Kuzning birinchi kuni» (1983) asarlarini qator yillar davomida Milliy akademik drama teatri repertuarini bezab kelganligi.

Turob TO'LA (1918-1990) yirik shoir, dramaturg, kinossenarist, teatr munaqquidi ekani, keng faoliyat ko'rsatgan teatr arbobi; Milliy va Muqimiy teatrлarda qo'yilgan «Quvvayi - qahqaha» («Nodirabegim») T. To'la ijodining yirik namunasi ekani. T. To'la tomonidan yaratilgan «Momo yer» (CH. Aytmatov asarining musiqali varianti) va «Qari qiz», «Qizbulloq» musiqali dramalarini Muqimiy nomli teatrinda qo'yilishi.

E. Vohidov, S.Ahmad, T. To'la, O'.Umarbekov, Shukrullo, Shuhrat kabi adiblarni dramaturgiyaga kirib kelishi va SH.Boshbekov, M. Boboyev, A.Ibrohimov, To'ra Mirzo, H. Rasul kabi yosh dramaturglar bo'g'inining paydo bo'lishi. Rejissura sohasida B.Yo'ldoshev R.Hamidov, O.Salimov va viloyatlarda

bo'lganligi. Hurriyat ("Hurriyat"), Sanobar («Shoshma, quyosh»), Ofeliya ("Hamlet"), Dezdemona ("Otello"), Katerina («Momaqaldoq»), Iokasta ("Shoh Edip") Eshonto'rayeva iste'dodining yuksak namunalari ekanligi.

Nabi RAHIMOV (1911-1994). Ijodida o'zbek an'anaviy teatr ijrochiligining zamonaviy ijob uslubi bilan uyg'un tarzda mushtarak topib, sahnaviy obrazlarga alohida jonlilik bahsh etganligi. Bobo Kayfiy («Mirzo Ulugbek»), Qushbegi Urganjiy («Buxoro»), Xlestakov ("Revizor"), Yago ("Otello") N. Rahimov ijodining eng yirik namunalari ekanligi. Mazkur obrazlarning konkret insoniy qismatlar qatori umumlashma tusini olganligi.

### 13- mavzu. Musiqali teatrda yirik aktyor va rejissyorlarning vujudga kelishi

O'zbek teatrini turlicha va betakror yuksak iste'dodga ega aktyorlar avlodlarini yetishtirganligi. Obid Jalilov, Mariya Kuznetsova, Mirshohid Miroqilov, Hikmat Latipov, S. Tabibullayev, Lutfilla Narzullayev, Toshxon Sultonova, Zamira Hidoyatova, Maryam Yoqubova, Xolida Xo'jayeva, Zaynab Sadriyeva singari o'nlab aktyorlarni bosh teatrımız san'atini dunyoga tanitishda olib borgan ilhombaxsh izlanishlari, ular yaratgan obrazlar fikran teranligi, nafis ijrochiligi bilan yangi avlod aktyorlariga saboq bo'lib kelayotganligi.

Soyib XO'JAYEV (1910-1982). Mashhur komik aktyor. Uning ijrosidagi Trufaldino, Bobchinskiy, Mikola, Ser Tobi Xo'ja, Toshbolta, G'ani, Xushmamat, Ersak botir kabi xalqona va quvnoq obrazlar.

Lutfixonim SARIMSOQOVA (1896-1991). Ko'p qirrali aktyor, mashhur san'at ustasi ekani. Uning turli xarakter xususiyatlarga ega - Oyijon, Layli, Shirin, Oysara, Maysara, Mastura satang, Risolat chevar, Kimyo, Yosuman, Jamol rollari.

Razzoq HAMRAYEV (1910-1981). Rejissyor va aktyor, uning o'zbek musiqali drama san'atini rivojlantirishdagi o'rni. Uning «Oltin ko'l», «Vatan ishqisi», «Muqimiy», «Nurxon», «Toshbolta oshiq», «Qalam qoshligim», «Guli siyoh», «Farg'ona hikoyasi» va boshqa spektakllarda musiqa va matn uyg'unligi.

Mahmudjon G'OFUROV (1917-2000). O'zbek musiqali dramasing shuhratli ustasi ekani. Uning Tohir, Haydar, Algomish, Farhod, Ravshan, Qays (opera teatrida), Rustam kabi romantik qahramon obrazlari. Uning Tursunali, Subhonqul kabi xarakterli obrazlari. M. G'ofurov san'atkori g'ururini baland tutgan inson.

Viloyat teatrlerida yetishgan aktyorlarning turli yo'nalishlarida milliy sahna san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shganliklari.

Abbos BAKIROV (1910-1975). Andijon teatrining asoschilaridan biri, yirik rejissyor, teatr va kino aktyori sifatida yurtimizdan tashqarida ham tanilganligi. A. Bakirovning "Xolisxon", "Layli va Majnun", "Nodira" spektakllari, yirik teatr (Romeo, Rustam, G'ofir) va kino (Amir Olimxon, Yusufbek xoji) rollari. Bakirovni 2001 yil "Buyu xizmatlari uchun" bilan taqdirlanganligi.

Murodjon AHMEDOV (1918-1988) yirik dramatik va musiqali drama aktyori sifatida Qo'qon, 1958 yildan Farg'ona teatrlerida Tohir, Algomish, Ravshan, Navro'z, singari rollari va yuksak qo'shiqchilik mahorati bilan shuhrat topganligi. 2001 yil uni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlanganligi.

Vahob Azimov, Asqar Ibrohimov, Qamara Burnasheva (Andijon) Soli

### 9-- mavzu. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida o'zbek teatri

Qadimdan xalq madaniy hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan o'zbek an'anaviy teatrini XIX asr oxirida yangi mavzu va shakllar bilan boyiganligi; Yusuf qiziq Shakarjonov (1869-1959) ijodida qadimiy teatr an'analar bilan yangi davr ovro'pacha teatr va sirk ifoda usullarini qorishiq tarzda namoyon bo'lganligi.

M. Behbudiy, A. Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar tomonidan yangi usuldag'i o'zbek teatrini barpo etish g'oyasining targ'ib etilishi. 1913 yili Toshkentda Abdulla Avloniy tomonidan "Turon" truppasining tashkil etilishi va uning ilk pardasini 1914 yilning 27 fevralida M. Behbudiyning "Padarkush" asari bilan ochilishi.

Mahmudxo'ja BEHBUDIY (1874-1919). Jadid ma'rifatparvarlik teatrining ulkan namoyondasi ekani. Uning "Padarkush" asarida xalqni ma'rifiy tarbiyalash orqali uning siyosiy ongini uyg'otish g'oyasi mujassam topganligi.

Abdulla AVLONIY (1878-1934). "Advokatlik osonmi?" (1914), Nusratilla Qudratilloning "To'y", X. Shukrulloning "Eski maktab, yangi maktab" (1916), Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" (1914) pesalari va ularda to'y va ma'rakalarga katta sarflar qilib bor shudidan ajralgan nodon kishilarning aychanchi qismatlarini ko'rsatish orqali ma'rifatli bo'lish g'oyasining olg'a surilishi.

"TURON" birinchi o'zbek professional teatri ekani va uning o'lkada teatrchilik harakatining keng avj olishida tutgan o'rni. O'zbek dramaturglari, rejissyor va aktyorlarning ilk avlodini "Turon" truppassi orqali yetishib chiqqanligi; o'zbek teatri aktyorlik va rejissyorlik san'ati tub asoslarining "Turon" truppassi faoliyatini zaminida shakllanganligi.

### 10- mavzu. Professional sahna, davlat teatrlarining tashkil etish va rivojlanish jarayonlari (1918-1940)

1920-yillardan professional teatr tarmoqlarining keng avj olishi; Moskvadagi studiya va Boku teatr texnikumlaridagi professional ta'llim jarayoni (1924-1930) va uning sahna madaniyati rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

1927 yili O'zbek Davlat drama teatrining qayta tuzilishi, 1929 yili O'zbek Davlat musiqa teatrlari va 1939 yili musiqa teatri zaminida xozirgi A. Navoiy nomidagi O'zbek Davlat katta opera va balet teatrlarini tashkil etilishi.

Akademik drama teatrining "Hamlet" (1935), "Boy ila xizmatchi" (1939), "Otello" (1941), "Alisher Navoiy" (1945), opera va balet teatrining "Bo'ron" (1939) operalari o'zbek sahna san'ati rivojining yorqin namunalari ekanligi.

Abdurauf Fitrat (1886-1938). "Chin sevish", "Hind ixtilochilar" (1920) asarlarida hind xalqining ingliz bosqiniga qarshi kurashini aks ettirish orqali o'z yurti mustaqilligi g'oyasini olg'a surgan millatparvar dramaturg, mutafakkir adib ekanligi. Fitratning "Abulfayzxon" (1924) tragediyasi va unda xalq birligi, yurt yaxlitligi g'oyasining ifoda etilishi.

Xamza Hakimzoda NIYOZIY (1889-1929). O'zbek teatrining yetakchi namoyondalaridan biri, "Zaharli hayot" (1915), "Tuhmatchilar jazosi", "Boy ila xizmatchi" (1918), "Maysaranning ishi" (1926), "Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi" kabi asarlari bilan milliy dramaturgiya va sahna san'ati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan dramaturg va teatr arbobi ekanligi. Xamza pesalarida o'zbek xalqining o'tmishi teran realistik obrazlar ("Boy ila xizmatchi",

"Zaharli hayat") orqali aks ettirilganligi.

G'ulom ZAFARIY (1899-1944). O'zbek musiqali drama janrining yirik namoyondalaridan biri ekanligi. Uning "Halima" (1919) asari birinchi ko'p pardali musiqali drama bo'lib, 1920 yili sahnaga qo'yilishi bilan uzoq yillar davomida teatr repertuarida keng shuhrat topganligi.

XURSHID (Shamsiddin Sharafiddinov, 1892-1960). Navoiy dostonlari va xalq ijodi ohangida yozilgan «Farhod va Shirin» (1922), «Layli va Majnun» (1923) musiqali dramalari bilan bu janr rivojiga munosib hissa qo'shgan dramaturg va teatr arbobi ekani.

CHO'LTON (Abdulhamid Sulaymon o'g'li, 1897-1938). Moskva o'zbek teatr studiyasida (1924-27 yy.) tarjimon, tashkilotchilardan biri, teatr va aktyorlar haqida ko'plab maqolalar yozgan tanqidchi va teatr arbobi ekanligi. Cho'ltonning «Yorqinoy» romantik dramasi va unda erkin muhabbat, ozod yurt, shaxs va insoniylar qadr-qimmat mavzularining yoritilishi.

Komil YASHIN (1909-1997). Ijodida ham sof drama (Sotsial buyurtma asar «Ikki komunist» - 1929, «Nomus va muhabbat» - 1935, «O'lim bosqinchilarga» - 1942, «General Sobir Rahimov» - 1949, «Buxoro» - 1974) hamda sof musiqali drama («Gulsara» 1933-35, «Nurxon» - 1940, «Ravshan va Zulkumor» - 1957) yo'naliishlari namoyon bo'lgan ko'p qirrali dramaturg bo'lganligi. Yashinining «Bo'ron» (1939), «Ulug' kanab» (1941), «Dillorom» (1958) va qator filmlarga ssenariylar yaratib, san'atimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor ekanligi.

Sobir ABDULLAning «Tohir va Zuhra» (1939), «Alpomish» (1947) pesalarining shuhrat topishi.

#### **11- mavzu. 1940 – 1950 yillarda sahna san'ati va o'zbek dramaturgiyası**

Mannon UYG'UR (1897-1953). «Turon» truppassi (1918 y. tashkil, etilgan) zaminida o'sib, keyinroq akademik teatr nomini olgan ijodiy jamoaning asoschisi, atoqli teatr arbobi va rejissyor ekani. Uning ustozligida A. Hidoyatov, SH. Burhonov, S. Eshonto'rayeva kabi o'nlab atoqli aktyorlar yetishganligi. Rejissyorligida yaratilgan 1920 yillarda: «Yorqinoy», «Halima», «Hamlet» (1935), «Otello» (1941), «Alisher Navoiy» (1945) spektakllarining o'zbek teatri rivojida yirik voqeaga aylanganligi.

Yetim BOBOJONOV (1904-1956). Aktyorlik va rejissyorlik ijodi bilan o'zbek teatri rivojiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor; uning rejissyorligida Hamza nomli akademik teatrda qo'yilgan "Makr va muhabbat" (1936), "General Sobir Rahimov" (1950), "Hamza" (1949) va ayniqsa "Boy ila xizmatchi" (1939) spektakllarining sahna san'ati rivojidagi o'rni. 1943-46 yillar davomida "Yangiyo'l" teatrda badiiy rahbar sifatida YE. Bobojonovning keng ko'lamli ijodiy izlanishlar olib borganligi.

Abror HIDOYATOV (1900-1958). Milliy akademik teatrda qahramonona-romantik ijro yo'naliishiga asos solgan, Hamlet, Otello rollari bilan buyuk tragik aktyor sifatida tanilgan ijodkor ekanligi. A. Hidoyatov yaratgan G'ofig ("Boy ila xizmatchi"), Alisher Navoiy, Muqanna obrazlari misolida o'zbek xalqining insoniylik ideallari mujassam topganligi.

Ma'suma QORIYEVA (1902-1946). 1919 yildan Mannon Uyg'ur ustozligida sahnaga chiqib ham musiqali dramalarda: Halima («Halima»), Layli, Shirin ham

sof dramalarda: Luiza («Makr va muhabbat»), Jamila («Boy ila xizmatchi») kabi rollari bilan o'zbek teatri rivojiga munosib hissa qo'shgan aktrisalardan biri ekanligi.

Tursunoy SAIDAZIMOVA (1911-1928). Moskva teatr-studiyasida tahsil ko'rib, so'ng Turandot («Malikai Turandot»), Klariche («Ikki boyga bir malay»), Halima rollari bilan benazir iste'dodini namoyon etgan san'atkor bo'lganligi. T. Saidazimova ijodi shoir Cho'lpon ta'rifida.

Hozirgi M. Uyg'ur nomidagi san'at institutining ochilishi (1945). 1950 yillarning boshlaridan teatrga oliy malakali aktyor va rejissyorlarning (T. Xo'jayev, Y. Abdullayeva, Z. Muhammadjonov...) kirib kelishi va har o'n yilda san'atkorlarning yangi-yangi bo'g'inlarining yetishuvni.

Yangi davr dramaturgalarining, hususan, Uyg'un, M. Shayxzoda, A. Qahhor kabi qalam ustalarining urushdan va undan so'nggi yillar o'zbek dramaturgiyasida yetakchi ijodkor sifatida faoliyat ko'rsatganliklari.

#### **12-mavzu. 1950-1970 yillarda sahna san'atidagi yangi bosqich.**

Toshxo'ja XO'JAYEV (1922-1975). Milliy akademik drama teatrda 1950 yildan rejissyor va qator yillar bosh rejissyor sifatida ijodiy jamoaga rahbarlik qilib, o'z spektakllarida zamonaviy teatr ilg'or tajribalarini milliy rejissura an'analari bilan uyg'un tarzda namoyon etgan, san'at instituti va teatrdagi yangi bo'g'in aktyorlarini yetishtirishda jonbozlik ko'rsatgan ustoz rejissyor ekanligi. T. Toshxo'jayevning «Yurak sirlari» (1953, B. Rahmonov), «Oltin devor» (1970, E. Vohidov), «Sarvqomat dilbarim» (1964, CH. Aytmatov), «O'limdan kuchli» (1967, E. Robles) spektakllari va ularda ko'plab aktyorlar ijodida yangi bosqichli obrazlar yaratilganligi.

Aleksandr Osipovich GINZBURG (1916-1973). 1950-60 yillarda Milliy akademik drama teatrda rejissyor va qator yillar bosh rejissyor sifatida ishlab «Bir sevgi afsonasi» (1953, N. Hikmat), «Gang daryosining qizi» (1956, R. Tagor), «Jazoir - mening vatanim» (1957, A. Dib) spektakllari bilan o'zbek sahnasida sharq mavzusini chuqur mujassam etgan va «Yuliy Sezar» (1958), «Mirzo Ulug'bek» (1962) asarlari orqali sahnada tragediya yechimi borasida yangi sahifa ochgan rejissyor ekanligi.

Shukur BURHONOV (1910-1987). A. Hidoyatov an'anasi davom ettirgan, xalqimiz orasida keng shuhrat topgan buyuk aktyorlardan biri bo'lganligi. SH. Burhonov qahramonlarining xalqchilligi, milliy yorqinligi (G'ofig, Yo'lechi, Sulaymon ota) va uning iste'dodining ko'p qirraliligi, komediya («Revizor»dagagi shahar hokimi) ijrosi qatori Romeo, Hamlet, Brut, Edip, Mirzo Ulug'bek kabi rollari orqali yirik fojeiy aktyor sifatida tanilganligi.

Olim XO'JAYEV (1910-1977). Ziyorolar obrazlari aktyor ijodining bosh mavzusi bo'lib kelganligi. A. Hidoyatovdan so'ng O. Xo'jayev Hamlet rolining asosiy ijrochisi bo'lib kelganligi. Sattor («Yurak sirlari»), Komilov («Imon»), Qirol Lir, Karl Moor («Qaroqchilar») O. Xo'jayev ijodiy ufqining kengligini namoyon etuvchi rollar ekanligi.

Sora ESHONTO'RAYEVA (1911-1998). O'zbek ayolining qalb tug'yonlarining mohir ifodachisi ekani. Jamila («Boy ila xizmatchi») aktrisa talqinida o'zbek xotin-qizlarining or-nomusi, iffati timsoli tarzida namoyon